

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA MANTIQIY KOMPYUTER O‘YINLARNING AHAMIYATI

Omonboyeva Muxlisa

*Andijon davlat pedagogika instituti
tayanch-doktorantura*

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlantirishda mantiqiy komputer o‘yinlarning ahamiyati va uning rivojlanishi haqida keng ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: aqliy ,axloqiy,mehnat,estetik,komunikativlik,jarayon, mantiqiy, intellektual, kompyuter, o‘yinlar.

Аннотация: В статье представлена обширная информация о значении логических компьютерных игр в интеллектуальном развитии детей дошкольного возраста и его развитии.

Ключевые слова: умственный, нравственный, трудовой, эстетический, коммуникативный, процесс, логический, интеллектуальный, компьютер, игры.

Abstract: The article provides extensive information about the importance of logical computer games in the intellectual development of preschool children and its development.

Key words: intellectual, moral, labor, aesthetic, communicative, process, logical, intellektual, kompyuter, games.

KIRISH

Maktabgacha ta’lim uyg’un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan muassasadir. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo’lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy,axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma’naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog’liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bolaning mashg'ulotlarda faol qatnashishini ta'minlovchi mashg'ulot shakllari alohida o'rinni egallaydi. Bu masalalarni ta'limning o'yinli shakllari texnologiyasi orqali muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. O'yin tashqi tomondan tashvishsiz va yengil ko'rinadi. Aslida esa, u o'yinchidan yuqori darajada energiya sarflashni, fikrlashni, o'zini tuta bilishni, mustaqil harakat qila olishni talab qiladi. Didaktik o'yinlar bu atamani bevosita o'yinlarga nisbatan ishlatish mumkin, chunki u maqsadli ravishda didaktikaning bir turiga kiradi. Tarixga nazar solsak, bolalar o'yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoiy diniy tartiblar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Davrlar o'tishi bilan o'yinlar bunday marosimlarning tarkibiy qismi sifatidagi xususiyatini yo'qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko'ngil ochar vositaga aylangan. Bolalar o'yinlarining muayyan bir qismi qadimgi odamlarning o'z turmush tarzini badiiy talqin qilish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qiulish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, shuningdek, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar o'yinlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi. O'yinlar faoliyatning mustaqil turi sifatida hamma vaqt jamiyat hayot tarzini muayyan darajada belgilagan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ko'pgina mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o'yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini o'rganmoqdalar. Shunga ko'ra o'yinlarning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli xil nazariyalar, fikrlar va qarashlar ham mavjud.

Bolaning o'yin faoliyati mazmunining manbayi, yuqorida qayd qilinganidek, uni o'rab turgan hayot sharoiti bilan bog'liq bo'lgan edi, demak, bolalar o'yinlarining tavsifi shunday, deb uqtiriladi. Kishilik taraqqiyoti tarixida mehnat o'yinlari katta o'rin tutgan, ammo inson hayotida o'yin, uning kelajakdagi mehnat faoliyatidan oldin turadi.

O'yin kishilarning mehnati madaniyat paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichda vujudga kelgan. O'yin ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. Shu sababli mehnat hamda faoliyatning boshqa turlari singari o'yin ham ijtimoiy harakterga ega. O'yinlarda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos ijtimoiy voqealar aniq aks etadi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik o'yinlari salmoqli o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda o'yinlar ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan keyingi o'yinlar haqida fikrlar bayon qilingan. Agar, bu ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan keyin ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar ov oldi mashqlari (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruhiy va jismoniy shaylanish) vazifasini o'tagan hamda jiddiy, o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu o'yin jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljaga yaqinlashishni, so'ngra uni osongina qo'lga

tushirishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan, uning yurish-turishlari, xatti-harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o'rganilgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu bois o'yinlar o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilik mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda taqlid qilish san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Ovdan keyingi o'yinlar ov muvaffaqiyatli tugagandan so'ng uyushtirilgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki ovdan o'lja bilan qaytish, ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan. Ovchilar bunday o'yinlar yordamida, kun bo'yi ov qilib, charchab qaytgach, kechqurunlari o'z a'zoyi badanlariga dam berish, bugungi taassurotlarni, kayfiyat va tuyg'ularni, ovdan mamnunliklarini, to'qchilikni, sho'xliklarni ifodalashgan. Keyinchalik, bu jarayonlar, ya'ni har muvaffaqiyatli ovdan keyin o'yinlar ijro etish an'ana tusini olgan.

Kompyuter texnologiyalarining o'rnini nafaqat maktab ta'limi tizimida, balki maktabgacha ta'lim tizimida ham tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Biz XXI asrda, axborot oqimining jadal o'sishi va yangi axborot texnologiyalarining rivojlanish davrida yashayapmiz. Kompyuterlashtirish zamonaviy inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi. Binobarin, kompyuter texnologiyalarini ta'limga joriy etish butun zamonaviy axborot olamining rivojlanishidagi mantiqiy va zarur qadamdir. Zamonaviy avlodda ulg'ayotgan bolaning dunyosi ota-onasi o'sgan dunyodan tubdan farq qiladi. Ta'lim tizimi o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishga yangicha talablar qo'ymoqda, yangicha yondashuvlar joriy etilishi an'anaviy usullarning o'rnini na imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Kompyuter o'yinlari nafaqat aqliy, balki intellektual rivojlanish uchun ham muvofiqlashtirishni shakllantirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishida mantiqiy o'yinlardan foydalangan holda, bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni amalga oshirilishi samarali natijalar beradi. Aniqlanishicha, 5-7 yoshli bolalarning mantiqiy kompyuter o'yinlaridan oqilona foydalanish ularning fikrlash qobiliyatini oshirishga imkon beradi va ularning o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'lishi uchun xizmat qiladi. Ba'zan bolangizni darslarga o'tirishga majburlash qiyin bo'lishi mumkin. Kompyuter o'yinlari yordamida esa bu muammoni yengish anchagina qulay bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida mantiqiy o'yinlarning ahamiyati nihoyatda katta hisoblanadi. Shu o'rinda, Xitoy muatafakkiri Konfutsiyning so'zlarini eslatib o'tishni joiz deb topdim: “Aytsang unutaman, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarib –anglab yetaman”. Bu so'zlarga ortiqcha izoh shart emas.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR.

1. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. Toshkent, Fan. 1998.
2. Usmonxo'jayev T.S, Rahimov M.M, Abdiyev A.N. O'zbek xalq harakatli o'yinlari. Toshkent, O'qituvchi. 2004
3. Jigulskiy K. Bayram va madaniyat. Moskva, 1995 yil, Art. 33.3
4. Rahmonov M. O'zbek teatri qadimiy zamonlardan XVII asrga qadar. Toshkent., 1975.
5. <https://baby-club.ru/babylibrary/edublog/vsestononnee-razvitiye-rebenka>